




TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



**TOSHKENT VILOYATIDA
O'RTA-MAXSUS, PROFESSIONAL
TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY
STATISTIK KO'RSATKICHLARI**
(2022/2023- o'quv yili boshiga)





Toshkent viloyatida o'рта maxsus professional ta'lim tizimi

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'рта va o'рта maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, 2020/2021- o'quv yilidan boshlab, O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'рта va o'рта maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Ma'lumot uchun: Milliy ta'lim tizimlarining tuzilishi va ta'lim dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlarning erishgan natijalarini taqqoslash, solishtirish va ularning milliy va xalqaro miqyosdagi maqsadlar sari olg'a siljishini kuzatish qiyin bo'lishi mumkin. Global miqyosda ta'lim tizimlarining jihatlari va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun kontseptual hujjat – Ta'limning xalqaro standart tasniflagichidan (TXST) foydalanish orqali erishish mumkin.

TXST-2011 tasnifi 2011- yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 36- sessiyasida qabul qilingan. Dastlab, YUNESKO tomonidan 1970- yillarda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1997- yilda qayta ko'rib chiqilgan TXST tasnifi milliy va xalqaro miqyosda ta'lim statistikasini yig'ish va taqdim etish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimidagi yangiliklarni yanada aniqroq aks ettirish uchun vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi.





Toshkent viloyatida o'рта maxsus, professional ta'limi tizimi

O'рта maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'рта ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanishini, shuningdek, chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim

**Boshlang'ich
professional
ta'lim**



**O'рта professional
ta'lim**



**O'рта maxsus
professional
ta'lim**



Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'рта professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'рта, o'рта maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.


O'рта maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'рта, o'рта maxsus, boshlang'ich professional va o'рта professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.





Akademik litseylar soni va ularning hududlar kesimida taqsimlanishi

(o'quv yili boshiga, birlik)




2022/2023- o'quv yilida 2021/2022- o'quv yiliga nisbatan akademik litseylar soni 1 taga ko'paygan.

2022/2023- o'quv yili boshiga ularning eng yuqori ko'rsatkichi Qibray tumanida 2 ta qayd etilgan, Parkent tumani va Chirchiq shahrida 1 ta kuzatilgan.

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning soni

(o'quv yili boshiga, ming kishi)




Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning soni 2018/2019- o'quv yili boshiga nisbatan 1,5 ming kishiga, ya'ni 45 %ga kamaygan.





Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi


(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)



2022/2023- o'quv yili boshida akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning eng katta qismi Qibray tumanida (0,7 ming kishi), eng kam qismi Parkent tumanida (0,1 ming kishi) qayd etilgan.

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning gender taqsimoti

(2022/2023- o'quv yili boshiga, kishi)



2022/2023- o'quv yili boshiga akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy sonida o'g'il bolalar ulushi 58,7 %ni (708 nafar), qizlar ulushi 41,3 %ni (499 nafar) tashkil etdi.






Akademik litseylarning o'qituvchilari tarkibi

(o'quv yili boshiga, kishi)

2022/2023- o'quv yili




Qibray	57
Chirchiq	29
Parkent	25

2018-2022 yillarda akademik litseylarning o'qituvchilari soni yildan yilga kamayib kelgan. O'z o'rnida, 2022/2023- o'quv yili boshida ularning soni 2018/2019- o'quv yiliga nisbatan 70 kishiga, ya'ni 38,6 %ga kamaygan. Akademik litsey o'qituvchilarining eng ko'p qismi Qibray tumanida (57 kishi), eng kam esa Parkent tumanida (25 kishi) qayd etilgan.

Akademik litseylarning bitiruvchilari

(ming kishi)

2022/2023- o'quv yili



Qibray	566
Chirchiq	146


2022- yilda akademik litsey bitiruvchilari soni 2018- yilga nisbatan 0,3 ming kishiga, ya'ni 30,1 %ga kamaygan






Toshkent viloyatida professional ta'lim

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, o'rta maxsus professional ta'lim darajalarini o'z ichiga oladi.



Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari soni

(o'quv yili boshiga, birlik)



Kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar sonining tahlili texnikumlar ko'payganligi, kasb-hunar maktablari hamda kollejlar esa kamayganligini kuzatish mumkin.


Masalan, 2022/2023- o'quv yili boshida kasb-hunar maktablari soni 2020/2021- o'quv yiliga nisbatan 2 taga, kollejlar 5 taga kamaygan, texnikumlar soni esa 1 taga ko'paygan.





Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning soni

(o'quv yili boshiga, ming kishi)




2020/2021- o'quv yilidan 2022/2023- o'quv yiligacha bo'lgan davrni tahlili kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'sishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, ushbu davrda ularning soni - kasb-hunar maktablarida 5,0 barobarga, texnikumlarda 2,1 barobarga oshgan, kollejlarda esa 1,1 %ga kamaygan.

Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining gender taqsimoti

(2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)



2022/2023- o'quv yili boshida boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan barcha o'quvchilar sonida qizlarning ulushi (50,1 %) o'g'il bolalarning ulushiga (49,9 %) nisbatan ko'p bo'lgan.

Agarda professional ta'limning har bir darajasi alohida kuzatilsa, kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'g'il bolalar (64,4 %) ulushi qizlar (35,6 %) ulushiga nisbatan ko'pligini ko'rish mumkin. Kollej va texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar orasida qizlar o'g'il bolalarga qaraganda ko'proq.


Shunday qilib, kollejlarda qizlar ulushi 82,6 %ni, o'g'il bolalar ulushi 17,4 %ni, texnikumlarda esa qizlar 66,6 %ni, o'g'il bolalar 33,4 %ni tashkil qilgan.






Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarining o'qituvchilari tarkibi

(o'quv yili boshiga, kishi)



Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida so'nggi uch yil davomida o'qituvchilar soni ko'payganini qayd etish mumkin. Shunday qilib, 2022/2023- o'quv yili boshida ularning soni 2021/2022- o'quv yiliga nisbatan 30,3 %ga oshgan.

Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarining bitiruvchilari (2022- yil uchun, kishi)



TOSHKENT VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



Ma'lumot uchun: Kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining IX sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda, 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida, kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

Kasb-hunar maktablari soni, birlikda

35

2021- yil




33

2022- yil

Kasb-hunar maktablarini hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda*

(2022/2023- o'quv yili boshiga)






Kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha
2022/2023- o'quv yili boshiga

Angren sh.	2,8
Olmaliq sh.	1,3
Chirchiq sh.	0,8
O'rta Chirchiq	1,3
Yangiyo'l	1,5
Bo'stonliq	1,0
Parkent	0,7
Bo'ka	0,6
Bekobod sh.	1,3
Ohangaron	0,7
Oqqo'rg'on	0,9
Toshkent	1,0
Ohangaron sh.	0,9
Yuqori Chirchiq	0,5
Chinoz	0,7
Quyichirchiq	0,5
Yangiyo'l sh.	0,5
Nurafshon sh.	0,5
Qibray	0,5
Bekobod	0,2
Piskent	0,5
Zangiota	0,3



2022/2023- o'quv yili boshida kasb-hunar ta'limi muassasalarida **20,2** ming o'quvchi tahsil olmoqda. Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Angren shahrida – **2,8** ming nafar, eng kami Bekobod tumanida – **0,2** ming nafar.




Agar kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi barcha o'quvchilar **100** foiz deb olinsa, ularning **35,6** foizini qizlar, **64,4** foizini o'g'il bolalar tashkil etadi.






**Kasb-hunar maktablarida faoliyat yuritayotgan
o'qituvchilarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(o'quv yili boshida, o'rindoshlarsiz, kishi)



Toshkent viloyati



2022- yilda viloyatdagi kasb-hunar maktablarida dars beradigan o'qituvchilar soni 2021- yilga nisbatan **301** nafarga yoki **1,4** barobarga ko'payib, **1319** nafarni tashkil etdi.


Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Angren shahrida – **209** nafar, eng kami – Bekobod shahrida – **22** kishi qayd etilgan.






Kollejlar soni, birlikda
(o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha



■ 2021/2022 ■ 2022/2023

Toshkent viloyati




2022/2023- o'quv yili boshida Toshkent viloyatida **11** ta kollej mavjud bo'lib, hududlar bo'yicha eng ko'pi Angren shahrida (2 birlik) qayd etilgan.





Kollej o'quvchilarining taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha



Toshkent viloyati




2022/2023- o'quv yili boshiga viloyatdagi **11** ta kollejda **4,9** ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Angren shahrida (**1,2** ming o'quvchi), eng kam ko'rsatkich Bo'stonliq tumanida (**0,1** ming kishi) qayd etilgan.






Kollej o'qituvchilarining taqsimlanishi (o'quv yili boshiga kishi)

Hududlar bo'yicha



■ 2021/2022 ■ 2022/2023

Toshkent viloyati





2022/2023- o'quv yili boshida kollejlarda **157** nafar (o'rindoshlarsiz) o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan (2021- yilda – 175 nafar) 18 nafarga kamaygan.






Texnikumlarni hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda (o'quv yili boshiga)



Toshkent viloyati




Viloyatda 2022/2023- o'quv yili boshida texnikumlar soni 18 tani tashkil etdi, 2021/2022- o'quv yili boshiga nisbatan 1 taga ko'paydi.






Texnikum talabalarining taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha



Toshkent viloyati




2022/2023- o'quv yili boshida Toshkent viloyatidagi texnikumlarda **7,9** ming talaba tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Olmalik shahrida (**2,0 ming**), eng past ko'rsatkich Quyi Chirchiq tumanida (**33** nafar) qayd etilgan.






Texnikum o'qituvchilari soni, kishi
(o'quv yili boshida)

Hududlar bo'yicha



Toshkent viloyati



2022/2023- o'quv yili boshida texnikumlarda **300** nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan, bu o'tgan o'quv yiliga (30 nafar) nisbatan **1,1** barobar ko'paygan. Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Olmaliq shahrida – **83** nafar, eng kami – Chirchiq shahrida – **2** nafar qayd etildi.





Statistik ko'rsatkichlarga izoh

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi – boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlardan iborat bo'ladi.

Akademik litsey – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Professional ta'lim – ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetentsiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi.

Kasb-hunar maktabi — Xalqaro tasniflagichning III darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida IX sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Kollejlari — Xalqaro tasniflagichning IV darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Texnikumlar — Xalqaro tasniflagichning V darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim tashkilotlari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.





Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul: Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi



Manzil: Toshkent vil., Nurafshon shahar



Tel.: +99871 203-45-00

